

SHE'RIY MATNLARNING FONOSTLISTIK TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17515854>

Zokirova Tanzila Zohidjon qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

Email: mahmudjonovatanzila@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisda she'riy matnlarning fonostilistik tahlili hamda, nutq tovushlarining uslubiy imkoniyatlari masalalari mavjud.

Annotation

This thesis presents ideas about the phonostylistic analysis of poetic texts and the stylistic possibilities of speech sounds.

Аннотация

В данном тезисе рассматриваются вопросы фоностилистического анализа поэтических текстов и стилистические возможности звуков речи.

Kalit so'zlar

fonostilistika, badiiy adabiyot, uslub, funksional, lingvistika, fonetik, leksik.

Keywords

phonostylistics, literature, style, functional, linguistics, phonetic, lexical.

Ключевые слова

фоностилистика, художественная литература, стиль, функциональный, лингвистика, фонетический, лексический.

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda-tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqegini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, ya'ni ko'chma ma'nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo'llanish zarurati ma'lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo'lsa-da, ammo ularni badiiy uslubdagichalik bemalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo'q. Boshqa uslublarda asosan ko'pchilikka ma'lum bo'lgan, tilda qisman turg'unlik kasb etgan tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Badiiy matnda esa tasviriy vositalarning shunday ko'rinishlariga duch kelamizki, ularni faqat maxsus ijodiy mehnat mahsuli bo'lgan badiiy tafakkurgina yuzaga keltirishi mumkin.

O'zbek badiiy adabiyoti tili namunalarini o'rganish jarayonida badiiy tasvir vositalari qamrovi nihoyatda keng va badiiy obraz yaratishdagi, emotsional-

ekspressiv nozikliklarni bera olishdagi asosiy vositalardan ekanligining guvohi bo'lamiz.¹

Adabiyotshunoslikning obyekti bo'lgan badiiy stil barcha *stillarni o'zida* ifodalashi bilan ajralib turadi. Bundan ko'rinadiki, stilistika ikki xil ko'rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bunga so'zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik *va badiiy* stil kiradi.

2. Lingvistik, ya'ni til stilistikasi. Uning turlari: *a)* fonetik stilistika *b)* leksik stilistika *d)* grammatik stilistika.²

Fonetik stilistika nutq tovushlarining uslubiy imkoniyatlarini o'rganadi. Bunda har bir tovushning nutqni ta'sirchan, e'tiborli qilishdagi o'zni, maqsadni aniq va to'g'ri ifodalashdagi ahamiyati hamda vazifasi tushuniladi. Fonetik vositalarga ritmika, vazn, qofiya, assonans, alliteratsiya, intonatsiya, pauza, fraza va urg'u, so'zning emotsional-ekspressiv xususiyatlari kiradi.

Bu yondashuv badiiy matnda tovushlarning uyg'unligi, fonetik vositalarning badiiy g'oyani kuchaytirishdagi o'rnini ochib beradi. Bu vositalarning to'g'ri tanlanishi va ularning stilistik vazifasi muallif uslubini aniqlashda muhim mezonlardan biridir. Shunday ekan, fonostilistik tahlil orqali badiiy matnning ma'no va hissiy qatlamlarini yoritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994.
2. Sultonsaidova.S.,Sharipova.O'.O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: YURIST-MEDIA MARKAZI,2009.

¹ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994.

² Sultonsaidova.S.,Sharipova.O'.O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: YURIST-MEDIA MARKAZI,2009.